

INKLYUZIV TA'LIMNING TIBBIY-PEDAGOGIK-IJTIMOIY MODELI

Yuldasheva Sarvinoz

Annotatsiya: *inklyuziv ta'lim, barcha o'quvchilar, shu jumladan, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ta'lim olish jarayoniga jalg qilishni maqsad qilgan yondashuvdir. Modelning tibbiy jihatni o'quvchilarning sog'liq holatini va maxsus ehtiyojlarini inobatga olishni nazarda tutadi, bu esa pedagogik yondashuvlar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Maqolada ushbu modelning samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va amaliyotlar ham ko'rib chiqiladi. Natijada, inklyuziv ta'limning tibbiy-pedagogik-ijtimoiy modeli nafaqat o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ham ta'minlaydi.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, tibbiy model, ijtimoiy model, pedagogik model, ta'lim jarayoni, pedagogik yondashuvlar, o'qitish metodlari.*

Аннотация: инклюзивное образование – это подход, целью которого является вовлечение всех учащихся, в том числе детей с особыми потребностями, в образовательный процесс. Медицинский аспект модели предполагает учет состояния здоровья и особых потребностей студентов, который осуществляется во взаимосвязи с педагогическими подходами.

В статье также рассматриваются стратегии и практики, необходимые для повышения эффективности этой модели. В результате медико-педагогическая-социальная модель инклюзивного образования не только расширяет образовательные возможности обучающихся, но и обеспечивает их интеграцию в общественную жизнь.

Ключевые слова: инклюзивное образование, медицинская модель, социальная модель, педагогическая модель, образовательный процесс, педагогические подходы, методы обучения.

Abstract: Inclusive education is an approach that aims to involve all students, including children with special needs, in the educational process. The medical aspect of the model involves taking into account the health status and special needs of students, which is implemented in conjunction with pedagogical approaches.

The article also considers the strategies and practices necessary to increase the effectiveness of this model. As a result, the medical-pedagogical-social model of inclusive education not only expands the educational opportunities of students, but also ensures their integration into social life.

Key words: inclusive education, medical model, social model, pedagogical model, educational process, pedagogical approaches, teaching methods.

Inklyuziv ta'lim barchmdir bolalarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlashga yo'naltirilgan tizi. Bunday ta'lim modeli nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim muhitiga qo'shishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'limning asosiy yondashuvlaridan biri tibbiy-pedagogik-ijtimoiy modeldir, bu uch asosiy yo'nalishning integratsiyasiga asoslanadi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning Ta'lim, Fan va Madaniyat tashkiloti (UNESCO) inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli dasturlar ishlab chiqmoqda. Dunyo bo'ylab maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun inklyuziv ta'limning qo'llanilishi kengayib bormoqda. Masalan, Yevropa davlatlari, AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda inklyuziv ta'lim tizimi ancha rivojlangan bo'lib, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan. O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro adabiyotlarda keltirilgan asosiy jihatlar:

•UNESCO (2021) tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda inklyuziv ta'limga modeli global miqyosda qanday amalga oshirilayotgani va uning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

•Florian L. (2014) tomonidan yozilgan "The SAGE Handbook of Special Education" asarida inklyuziv ta'limga pedagogik yondashuvlari va innovatsion metodlari bayon etilgan.

•Slee R. (2018) o'zining "Inclusive Education: From Policy to Practice" asarida inklyuziv ta'limga siyosati va uning amaliyotdagi qo'llanilishi masalalariga urg'u bergan.

•O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2020) tomonidan ishlab chiqilgan strategiya mamlakatimizda inklyuziv ta'limga rivojlanishining yo'nalishlarini belgilaydi.

Tibbiy-pedagogik-ijtimoiy modelning har uch jihatni o'zaro bog'liq bo'lib, ularning muvozanatli ishlashi inklyuziv ta'limga muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Tibbiy xizmatlarning yetarli emasligi pedagogik jarayonga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga, pedagoglarning maxsus metodikalardan foydalanish malakasi yetarli bo'lmasa, inklyuziv ta'limga samarasiz bo'lib qoladi. Ijtimoiy omillar, jumladan, ota-onalar va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, inklyuziv ta'limga to'laqonli ishlashi uchun quyidagi tavsiyalar dolzarb hisoblanadi:

1. Tibbiy xizmatlar takomillashtirilsin: Har bir ta'limga muassasasida psixolog, defektolog va logoped xizmatlari kengaytirilsin.
2. O'qituvchilarga maxsus tayyorgarlik berilsin: Inklyuziv ta'limga metodikalarini o'qitish dasturlari kuchaytirilsin.
3. Jamiyatda inklyuziya madaniyati shakllantirilsin: Ijtimoiy loyihibarlar, seminarlar va targ'ibot ishlari kuchaytirilsin.

Tibbiy modelning asosiy tamoyillari quyidagilar:

• Tibbiy diagnostika – bola maxsus ta’limga ehtiyoji bor-yo‘qligini aniqlash.

• Profilaktika va reabilitatsiya – bolaning sog‘lig‘ini yaxshilash uchun individual dasturlar ishlab chiqish.

• Multidiplinarn yondashuv – shifokorlar, defektologlar va psixologlar bilan hamkorlik qilish. Pedagogik modelning asosiy vazifasi – maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va ularni individual qobiliyatlaridan kelib chiqib o‘qitishdir.

Tibbiy jihatlar inklyuziv ta’limning asosiy komponentlaridan biridir. Bu o’z ichiga sog’liqni saqlash va tibbiy yordam ko’rsatishni oladi. Maxsus ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun. Har bir o’quvchining sog’liq holatini baholash va ularning ehtiyojlarini aniqlash. Sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish va jismoniy faoliyatni qo’llab-quvvatlash. Pedagogik jihatlar inklyuziv ta’limda muhim rol o’ynaydi. Ularning asosiy maqsadi — ta’lim jarayonini har bir o’quvchiga moslashtirish. O’quvchilarning individual qobiliyatları va ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil etish. Turli xil pedagogik yondashuvlar va metodlardan foydalanish (masalan, ko’p sensoryal o’qitish). O’qituvchilarni maxsus ehtiyojlarga ega bo’lgan o’quvchilar bilan ishlashga tayyorlash. Ijtimoiy jihatlar inklyuziv ta’limning muhim qismidir, chunki ular o’quvchilarning jamiyatga integratsiyasini ta’minlaydi. Maxsus ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilarni jamiyatga kiritish va ularning ijtimoiy aloqalarini rivojlantirish. O’quvchilarga psixologik yordam ko’rsatish va ularning emotsiyal holatini yaxshilash. Ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o’rnatish va ularning fikrlarini inobatga olish.

Inklyuziv ta’limning tibbiy-pedagogik-ijtimoiy modeli barcha o’quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Ushbu model orqali maxsus ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’lim olish jarayoni yanada samarali bo’ladi. Ta’lim jarayonida tibbiy, pedagogik va ijtimoiy jihatlarni birlashtirish orqali, biz jamiyatda yanada inklyuziv muhitni yaratishga erishamiz. Bu model nafaqat ta’lim tizimini, balki jamiyatning

umumiylar rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi. Inklyuziv ta'lim — bu har bir bolaning imkoniyatlarini ochishga yordam beradigan muhim yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications.
2. Slee, R. (2018). Inclusive Education: From Policy to Practice. London: Routledge.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2020). O‘zbekistonda Inklyuziv Ta’limni Rivojlantirish Strategiyasi. Toshkent.
4. Mittler, P. (2012). Working Towards Inclusive Education: Social Contexts. London: David Fulton Publishers.